International scientific-practical conference: Vol.5 / No.17.04(2025).
«Modern philological paradigms: interaction of traditions and innovations IV»
Proceedings homepage: https://www.myscience.uz/index.php/nuu

NEYROPSIXOLINGVISTIKANING IJTIMOIY AHAMIYATI

Bobokalonov Ramazon Rajabovich
Filologiya fanlari doktori, professor

Bekmurodova Sadoqat Muhammadovna
Osiyo Xalqaro Universiteti 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Maqolada neyropsixolingvistikaning hayotdagi ijtimoiy ahamiyati, til va bosh miyaning o`zaro bog`liqligi inson nutqining shakllanishi, tildan foydalanish jarayonlari tahlilga tortilgan. Zamonaviy tilshunoslikda nevropsixolingvistikaning ta'lim tizimida tutgan o`rni, psixoterapiya va nevrologiya kabi sohalarning o`z tizimidan tashqaridagi holatiga kengroq to`xtalgan. Ayniqsa, nutq buzilishlaridagi sabablarni aniqlash va nutqni o`stirish hamda davolash jarayonida nutqiy ko`nikmalarni berish usullari, chet tillarni o`rganish jarayonini optimallashtirishning ahamiyati yuzasidan mulohaza yuritilgan.
Kalit so`zlar: neyropsixolingvistika, til, bosh miya, miya, nutq, nutq buzilishlari, psixolingvistika, ta'lim, xarizmali inson, nevrologiya, tibbiyot, qobiliyat, Broka va Vernike zonalari, Altsgeymer, Parkinson, shizofreniya.

Abstract: The article analyzes the social relevance of neuropsycholinguistics in life, the relationship between language and the brain, the formation of human speech, and the processes of language use. The role of neuropsycholinguistics in modern linguistics, its role in the education system, and its status outside the system in areas such as psychotherapy and neurology are discussed in more detail. In particular, the importance of identifying the causes of speech disorders and methods of developing speech and providing speech skills in the process of treatment, as well as optimizing the process of learning foreign languages, is considered.
Keywords: neuropsycholinguistics, language, brain, brain, speech, speech disorders, psycholinguistics, education, charismatic person, neurology, medicine, ability, Broca's and Wernicke's areas, Alzheimer, Parkinson, schizophrenia.

Kirish

Neyropsixolingvistika tilshunoslikning zamonaviy tadqiqot yo`nalishi bo`lib, uning inson hayotidagi amaliy ahamiyati, kelajakda Yangi O`zbekiston uchun Uchinchi Renessans yoshlarini tarbiyalashdagi o`rni juda dolzarbdir**.** Bu fanga shu vaqtga qadar turli xil ruhiy nuqson va kamchiliklarga ega bo`lgan bemorlarga nisbatan zarur bo`lgan alohida fan sifatida qaralib kelinayotgani ma'lum. Biroq neyropsixolingvistika har bir jamiyat a'zosi uchun zarur bo`lgan ijtimoiy fan sifatida oddiy insonni yuksak darajadagi ideal lingvistik shaxsga integratsiyalashda, uni xarizmali inson darajasiga ko`tarishda, jamoa a'zolarini nutqiy qobiliyatlarini yaxshilashda, unlarning liderlik qobiliyatlarini oshirishga nazariy va amaliy yordam beradi. Olib borilayotgan tadqiqotlardan shu jihat ma'lumki, jahon tilshunosligida masalaning bu qamroviga, ya'ni ijtimoiy muammolariga kam e'tibor qaratilib kelinayotgani kuzatiladi.

Zamonaviy tilshunoslikda bir asrdan buyon til va tafakkur o`rtasidagi bog'liqlik va farqiyatni o`rganish muhim ilmiy yo`nalishlardan biriga aylanib bormoqda[36]. Nevropsixolingvistika turli tarmoqlar, chunonchi, sistem-struktur tilshunoslik, glosematika, generativ grammatika, kognitiv lingvistika, pragmalingvistika, paralingvistika, diskursologiya,

[36] Tissot R, Mounin G, Lhermitte F. L'agrammatisme : étude neuropsycholinguistique. Bruxelles: Charles Dessart Éditeurs, 1973; Nespoulous J.L. Approche linguistique de divers phénomènes d'agrammatisme, étude comparative, applications aux méthodes de diagnostic et de rééducation du langage. Thèse de doctorat, université Toulouse-II - Le Mirail, 1973; Broca P. Remarques sur le siège de la faculté du langage articulé, suivies d'une observation d'aphémie (perte de la parole). Bull Soc Anat 1861, 330-57; Wernicke C. Der aphasische Symptomenkomplex. Eine psychologische Studie auf anatomischer Basis. Breslau :M. Cohn et Weigert, 1874.

kommunikologiya, nevrolingvistika, psixolingvistika, personologiya, lingvomadaniyatshunoslik kabi tilshunoslik sohalari qatorida rivojlanib davr o`tishi bilan fanga aylanib ulgurdi. Neysixolingvistika – bu tilni o`zlashtirish, nutq jarayonlari va ularning miyada qayta ishlanishini o`rganuvchi fan sohasi bo`lib qolmay, u insonning kundalik hayotida katta ahamiyat kasb etishini alohida qayd etish lozimdir. Shuning uchun mazkur ishda uning hayotimizda tutgan o`rni, dolzarbligi va turli sohalardagi kesishmasi haqida fikr yuritamiz. Neyropsixolingvistika – bu nutq va miya o`zaro aloqasini o`rganadigan ijtimoiy fan bo`lib, unda til, kognitiv jarayonlar va nevrologik tizimlarning ishlashi tahlil qilinadi. Bu soha insonlarning nutq orqali o`zaro munosabatlarini, til buzilishlarini hamda psixologik va ijtimoiy muhitning nutq rivojlanishiga ta'sirini o`rganadi.

Asosiy qism

Bosh miya nutq shakllanishida muhim rol o`ynaydi. Masalan, Broka va Vernike zonalari bosh miyaning nutqni_ ishlab chiqarish va nutqni idrok qilishga javobgar qismlar sanaladi [13]. Ulardan birining shikastlanishi yoxud miya chayqalishi nafaqat nutq buzilishlariga, balki sog'lom odamning nogiron bo`lib qolishiga olib keladi: miya shikastlanishi alfaziya, depressiya, duduqlanish, Alzheimer, Parkinson, schizophrenia kabi kasalliklarning kelib chiqishiga sabab bo`ladi [1: 2; 3]. Nutq buzilishlarini tuzatish bilan nevrologiya, psixologiya va logopediya kabi fanlar alohida-alohida shug'ullanadi. Neyropsixolingvistikada esa nutq muammolarini bartaraf etishga yordam beradigan, ijtimoiy masalalarni hal etishga e'tibor qaratadi va nevrologika, psixologik va lingvistik ilmiy bilimlar kesishmasida faoliyat yuritadi. Bu fan inson nutqini ham reablitatsiya qilishga va ham qayta jonlashtirish bilan bir qatorda jamiyat a'zosining ruhiy jihatdan sog'lom va barkamol bo`lishiga zarur ko`nikma hosil qilishga asos bo`lib xizmat qiladi [14].

Neyropsixolingvistika nafaqat tibbiyot uchun, balki ijtimoiy hayot uchun muhim ahamiyatga ega fandir: u miya va nutq jarayonlari o`rtasidagi bog'liqlikni, nutqiy barkamollikni, nodir inson sifatida ruhiy qobiliyatini mustahkamlashga zamin tayyorlaydi [4; 5; 6].

Birinchidan, birgina tibbiyot aloqadorligida:

1. Nutq buzilishlarini tashxislash va davolashga sharoit yaratadi: afaziya, disleksiya va boshqa nutq bilan bog'liq muammolarni aniqlash va davolashda neyropsixolingvistik tadqiqotlar muhim rol o`ynaydi. Bu kasalliklarning sabablari va mexanizmlarini tushunish orqali samarali davolash usullari ishlab chiqiladi.

2. Neyroreabilitatsiyani amalga oshirishga yordam beradi: miya shikastlanishi yoki insultdan keyin bemorlarning nutq qobiliyatini tiklashda neyropsixolingvistik yondashuvlar qo`llaniladi. Individual reabilitatsiya dasturlari tuzish uchun bu sohadagi bilimlar zarur.

3. Nevrologik va psixiatrik kasalliklarni aniqlashtiradi: Altsgeymer kasalligi, Parkinson, shizofreniya kabi kasalliklarda nutq va til bilan bog'liq o`zgarishlarni o`rganish orqali ularning diagnostikasi va davolashida yangi yondashuvlar ishlab chiqishga ko`maklashadi.


Neyropsixolingvistikaning tibbiyotdagi ahamiyati uning turli kasalliklarni tushunish, tashxislash va davolashda, shuningdek, reabilitatsiya jarayonlarini optimallashtirishda namoyon bo`ladi [7; 8].

Ikkinchidan, neyropsixolingvistika ta'lim-tarbiya va til o`rganish jarayonlarida ahamiyatlidir. Bu fan chet tillarini o`rganish jarayonini osonlashtirishda katta rol o`ynaydi. Tadqiqotlar shuni ko`rsatadiki, bolalik davrida miya plastiklik darajasi yuqori bo`lgani uchun til o`rganish tezroq amalga oshadi. Shuningdek, ushbu fan so`nggi yillarda sun'iy intellekt asosida avtomatik tarjima va ovoz tanish tizimlarining rivojlanishiga ham xizmat qilmoqda. Chet tillarni o`rganish va o`qitishda neyropsixolingvistika dars jarayonlarini yaxshiroq va samaraliroq bo`lishini ta'minlaydi, bu esa o`z-o`zidan ta'lim metodikalarini takomillashtirish va yangilashni taqazo etadi [9; 10; 15].

Uchinchidan, tibbiyot va logopediya aloqadorligida:

1. Neyropsixolingvistika va logopediya bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo`lib, neyropsixolingvistika logopediya sohasida muhim ahamiyatga ega. Ushbu fan miya va nutq

jarayonlari o`rtasidagi bog‘liqlikni o`rganadi, bu esa nutq buzilishlarini tushunish va davolashda maxsus kasb egalari logopedlarga yordam beradi.



2. Nutq buzilishlarini tushunishda neyropsixolingvistika miya faoliyati va til o`rtasidagi munosabatlarni o`rganish orqali afaziya, disleksiya, dizartriya kabi nutq buzilishlarining sabablarini aniqlashga yordam beradi. Bu bilimlar logopedlarga har bir buzilishning kelib chiqish mexanizmlarini yaxshiroq tushunishga imkon beradi.

3. Turli ruhiy kasalliklarga tashxis qo`yishda neyropsixolingvistik tadqiqotlar natijasida ishlab chiqilgan test va baholash usullari logopedlarga nutq buzilishlarini aniqlashda qo`llaniladi. Bu usullar orqali bemorning qaysi miya sohalari zarar ko`rganini va bu nutq qobiliyatiga qanday ta’sir ko`rsatganini aniqlash mumkin boladi.

4. Neyropsixolingvistika natijalari asosida davolash usullarini ishlab chiqishda logopedlar individual davolash rejalari tuzishadi. Masalan, agar bemorda Broka markazi shikastlangan bo`lsa, bu uning nutq ishlab chiqish qobiliyatiga ta’sir qiladi va logoped terapiya jarayonida ushbu omilni hisobga oladi.

5. Reabilitatsiya jarayonini monitoring qilishda – neyropsixolingvistik yondashuvlar reabilitatsiya jarayonida bemorning rivojlanishini kuzatish va terapiya usullarini moslashtirishga yordam beradi. Bu esa davolash samaradorligini oshiradi.

To`rtinchidan, Neyropsixolingvistika sohasidagi tadqiqotlar nafaqat logopediya amaliyoti uchun, balki jamiyatda har bir lingvistik shaxsning o`z o`rnini topishga yo`l ochib beradi. Ilmiy tadqiqotlar yo`nalishini jamiyat taraqiyotiga qaratadi [9; 11]. Yangi tadqiqot usullarini ishlab chiqib, lisoniy shaxsning rivojlanishiga turtki beradi. Neyropsixolingvistika inson miyasining tilni qayta ishlashdagi kognitiv jarayonlarini o`rganadi. Bu esa sun'iy intellekt tizimlarida insonning fikrlash va qaror qabul qilish jarayonlarini taqlid qilishga imkon beradi. Masalan, IBM ning Watson tizimi neyropsixolingvistik tamoyillarga asoslangan holda murakkab savollarga javob berish va tibbiy diagnostika qilishda qo`llaniladi. Umuman olganda, neyropsixolingvistika va

sun'iy intellektning integratsiyasi inson-mashina o`zaro ta'sirini yaxshilash, til bilan bog'liq vazifalarni avtomatlashtirish va yangi texnologik yechimlarni yaratishda katta ahamiyatga ega.

Beshinchidan, neyropsixolingvistika sun'iy intellekt (SI) va texnologiya sohalarida muhim ahamiyatga ega bo`lib, inson tilini tushunish va qayta ishlashda yangi imkoniyatlar yaratadi.

1. Tabiiy tilni qayta ishlashga (NLP) sharoit yaratadi: inson miyasining tilni qayta ishlash jarayonlarini o`rganadi. Bu bilimlar sun'iy intellekt tizimlarida tabiiy tilni qayta ishlashda qo`llanilib, matnni tahlil qilish, tarjima qilish va nutqni tushunish kabi vazifalarni bajarishga ahamiyat qaratadi [16].

2. Nutqni aniqlash va sintez qilishga ko`maklashadi: neyropsixolingvistika nutqning shakllanishi va qabul qilinishini o`rganadi. Bu bilimlar sun'iy intellekt asosida nutqni aniqlash va sintez qilish tizimlarini yaratishda qo`llaniladi. Masalan, Siri, Alisiya yoki Alexa kabi ovozli yordamchilar foydalanuvchilarning nutqini tushunish va ularga javob berishda ushbu texnologiyalardan foydalanadi.

3. Neyropsixolingvistik tadqiqotlar inson muloqotining psixologik va neyrobiologik asoslarini o`rganadi. Bu esa sun'iy intellekt asosidagi chatbotlar va virtual yordamchilarning inson bilan tabiiy va samarali muloqot qilishini ta'minlashga yordam beradi. Masalan, mijozlarga xizmat ko`rsatish sohasida chatbotlar foydalanuvchilarning savollariga insoniy muloqot uslubi bilan javob berish uchun neyropsixolingvistik tamoyillardan foydalanadi.

Oltinchidan, til o`rganish va ta'lim texnologiyalarini rivojlantirishda neyropsixolingvistika poydevor bo`lib xizmat qiladi. Uning yordamida til o`rganish jarayonlari yaxshilanadi, bu esa sun'iy intellekt asosidagi ta'lim platformalarida individual o`quv dasturlarini yaratishga yordam beradi. Masalan, Duolingo kabi til o`rganish ilovalari foydalanuvchilarning o`rganish uslublarini tahlil qilish va moslashtirilgan darslarni taqdim etishda foydalaniladi.

Yettinchidan. ijtimoiy hayot va psixologiyada neyropsixolingvistikaning roli alohida qiymatga egadir. Bilamizki, nutq insonlar o`rtasidagi asosiy muloqot vositasidir. Neyropsixolingvistika insonlarning til orqali qanday fikrlashi, emotsional ta’sirlanishi va muloqot jarayonlarini tushunishda yordam beradi. Shuningdek, bu fan marketing va reklama sohalarida iste’molchilarning nutqiy reaksiyalarini tahlil qilish uchun ham qo`llaniladi.

1. Neyropsixolingvistikaning ijtimoiy hayotdagi roli jamiyatda kommunikatsiya, madaniyatlararo muloqot va ijtimoiy aloqalarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi, til va ijtimoiy muomalani to`g’ri o`rnatishga mayatnik bo`la oladi.

2. Til odamlar o`rtasidagi asosiy aloqa vositasi bo`lib, miyaning qaysi hududlari muloqotga javobgar ekanligini tushunish, samarali muloqot strategiyalarini shakllantirishga yordam beradi.

3. Neyropsixolingvistik tadqiqotlar zaminida reklama va propaganda, marketing va siyosiy kampaniyalarda samarali so`z va uslublarni tanlashga as qotadi. Ijtimoiy integratsiyani yaxshilaydi, nutq buzilishlari bo`lgan odamlarning jamiyatga moslashuvini yaxshilash uchun neyropsixolingvistik yondashuvlar va usullarni ishlab chiqishga yo`l ochib beradi.

Sakkizinchidan, neyropsixolingvistikaning psixologiya bilan chambarchas aloqadorligi inson psixikasi va ruhiy salomatligi bilan bog‘liq turli jarayonlarni tushunishda muhim o`rin tutadi. Nutq va ong aloqasi, insonning fikrlash jarayoni va nutqning shakllanishi bir-biri bilan chambarchas bog‘liqlikda o`rganiladi. Travmadan keyingi reabilitatsiya jaragonida miya shikastlanishlari (masalan, insult) natijasida paydo bo`ladigan nutq buzilishlari (afaziya) neyropsixolingvistik terapiya orqali tuzatilishiga zamin yaratadi.

O`ninchidan, neyropsixolingvistika stress va tilning travmatik vaziyatlarida nutqning qanday o`zgarishini o`rganadi, uning sabablarini aniqlaydi va oqibatlarini bartaraf etishda psixologik yordam metodlarini ishlab chiqadi. Inson ruhiyatiga ta’sir o`tkazadigan omillar juda ko`p bo`lib, ular asab tizimiga ta’sir etadi. Dunyoda bo`lib turgan ijtimoiy-sisosiy beqarorlik, urushlar, terroristik voqealar, internet tarmog’idagi vahimali hodisalar, tinchlikni buzadigan xurujlar, hatto, fanat bo`lishga chorlaydigan turli xil chaqiriqlar va nayranglar sog’lom insonga o`z ta’sirini o`tkazishiga ko`p guvoh bo`lamiz. Ularning natijasida turli ruhiy kasalliklar sodir

bo`layotganini eshitib vahima, qurquv va betoqatlik tuyamiz. Bularning oldini olishga ham shu fan yordam berishini tushunib yetishimiz zarurdir.

Xulosa

Neyropsixolingvistika bugungi kunda inson miyasi va til o`rtasidagi murakkab munosabatlarni o`rganishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu soha tilning miya faoliyatidagi o`rnini tahlil qilish orqali nutqiy jarayonlarning fiziologik va psixologik asoslarini aniqlashga yordam beradi va ijtimoiy masalalarni ongli bartaraf etishga xizmat qiladi. Jamiyat orasidagi fors-major holatlarga chap berib, asab tizimini himoyalaydi. Bu esa, o`z navbatida, nutq buzilishlarini tashxislash va davolashda, shuningdek, chet tillarni o`rgatish metodikalarini takomillashtirishda qo`llaniladi. Shuningdek, neyropsixolingvistik tadqiqotlar sun'iy intellekt va tabiiy tilni qayta ishlash texnologiyalarini rivojlantirishga hissa qo`shib, inson-mashina o`zaro ta'sirini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu tariqa, neyropsixolingvistika zamonaviy fan va texnologiyalarning turli jabhalarida dolzarb yo`nalishlardan biri bo`lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Baldo, J. V., Dronkers, N. F. (2006). Language and the Brain: Mapping Aphasia Types onto Brain Tissue Volume. Human Brain Mapping, 146-156.
2. Bobokalonov R.R. Communicative speech and neuropsicolingvitic state. LAP Lambert Academic Publishing. Repablic of Moldova, Europe printed. 2024. P. 3-158. ISBN: 9786207465583
3. Бобокалонов Р.Р. Нейропсихолингвистика: языковая личность и харизматичный человек (Теория, практика и методология). Monografiya, LAMBERT Academic Publishing, Shisinau, Moldavia-Europe, 2023. 230 s. ISBN 978-620-6-15214-9
4. Bobokalonov R. R. Neuropsycholinguistics: linguistic personality and charismatic person. Theory, practice and methodology. Monografiya, LAP LAMBERT Academic Publishing, Repablic of Moldova, Europe printed. 2023. P. 3-230. ISBN: 978-620-6-15214-9.
5. Bobokalonov P. R. Kanonik modelli nutqiy hosilalarning tollerantlikka aloqadorligi. Monografiya, "Fan ziyosi" nashriyoti, Toshkent, 2021.
6. Bobokalonov R.R. Neuropsycholinguistics: linguistic personality and charismatic person. Theory, practice and methodology. Monografiya, LAP LAMBERT Academic Publishing, Repablic of Moldova, Europe printed. 2023. P. 3-230. ISBN: 978-620-6-15214-9.
7. Bobokalonov R.R. Communicative and Neuropsycholinguistic Problems of Semantic Functionally Formed Speeches. Spanish Journal of Innovation and Integrity. Volume: 06, 2022. 242-247 b.
8. Sayfullaeva R.R., Bobokalonov R.R. Neuropsycholinguistics: the linguistic personality and the charismatic person. Monograph in uzbek, GlobEdite. Republic of Maldova, Europe printed, 2023. P. 3-149 ISBN: 978-620-0-64878-5.
9. Bobokalonov R. O'zbek tilida gap qurilishi va sistem-struktur talqini. Monografiya.– Toshkent: "Fan" nashriyoti, 2006. -123 b.
10. Bobokalonov R. Neyropsixolingvistika : Xarizmali shaxs qobiliyati. Monographiya, GlobEdite. Republic of Maldova, Europe printed, 2024. P. 3-223. ISBN:9786206797227
11. Bobokalonov R.R. Neyropsixolingvistika: shaxsiyatning rangin jilosi /"Lisoniy meros va tilshunoslik taraqqiyoti" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari – Andijon davlat universiteti, 2023. - 470 bet.2023-yil, 15-may, 14-19 b.
12. 13. Bobokalonov R.R. Xarizmali insonda nutq ko`rkamligi / Journal of Advanced Research and Stability Volume: 03 Issue: 05 | May - 2023 ISSN: 2181-2608, 556-561 b.
13. 14. Bobokalonov R.R. Neyropsixolingvistika: lingvistik shaxsning rangin olami / Journal of Advanced Research and Stability Volume: 03 Issue: 05 | May - 2023 ISSN: 2181-2608 www.sciencebox.uz 377-382 b.

14. 15. Bobokalonov R.R. Neyropsixolingvistika: shaxsiyatning rangin jilosi / “Lisoniy meros va tilshunoslik taraqqiyoti” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari – Andijon davlat universiteti, 2023. - 470 bet. 2023-yil, 15-may, 14-19 b.
15. 16. Price, C. J. (2012). The Neural Basis of Language: Insights from Neuroimaging. Journal of Anatomy, 121-125.